

QADIMGI VA ZAMONAVIY INGLIZ TILIDA GRAMMATIK TUZILMA VA INFLEKSIYA TIZIMI.

Husanova Odinaxon Muhammadjon qizi

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali, English education
yo'nalishi 3- bosqich talabasi E-mail: odinaxonhusanova767@gmail.com*

Rishat Anvari

*Tashkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali,
English education kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Bu maqolada qadimgi ingliz tili (Old English) va zamonaviy ingliz tili (Modern English) grammatik tizimlari tarixiy va lingvistik nuqtayi nazardan keng tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor otlarning jins va fe'l tuslanish shakllari hamda so'z tartibining evolyutsiyasiga qaratilgan. Qadimgi ingliz tilining infleksiyaga boy morfologik tuzilishi bilan zamonaviy ingliz tilining analitik soddaligi o'rtasidagi tafovutlar ilmiy manbalar asosida ochib berilgan. Shuningdek, ingliz tilining soddalashuvi ijtimoiy, tarixiy va madaniy omillar orqali qanday yuzaga kelgani muhokama qilingan. Natijada, grammatik soddalashuv ingliz tilining global til sifatida keng va tez tarqalishiga ta'sir etgani ilmiy xulosa sifatida keltirilgan.

Kalit so'zlar: Old English, Modern English, grammatika, infleksiya, morfologiya, til evolyutsiyasi.

Annotation: This research paper analyzes the grammatical structure of Old English and Modern English from a historical-linguistic perspective. The study focuses on noun gender and case systems, verb inflections, and changes in word order. Differences between the inflectional complexity of Old English and the analytic simplicity of Modern English are discussed based on linguistic literature. Furthermore, the role of historical, social, and cultural factors in the grammatical simplification of English is examined. The study concludes that such simplification contributed significantly to English becoming a global language.

Keywords: Old English, Modern English, grammar, inflection, morphology, linguistic development.

Аннотация: В статье проводится историко-лингвистический анализ грамматических различий между древнеанглийским и современным английским языком. Основное внимание уделено системам рода, падежей, спряжению глаголов и изменению порядка слов. Показано, как сложная инфлексивная структура древнеанглийского языка постепенно трансформировалась в аналитическую систему современного английского. Рассматривается влияние социальных и культурных факторов на эти изменения. Делается вывод, что упрощение грамматики стало одной из причин глобального распространения английского языка.

KIRISH

Til — insoniyatning eng muhim ijtimoiy va madaniy hodisalaridan biridir. U faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning tarixi, dunyoqarashi, tafakkuri va madaniyatini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisa. Til orqali insoniyat o'z fikrini, his-tuyg'ularini, qadriyatlarini va jamiyatdagi o'z o'rnini ifodalaydi. Shuning uchun ham, tilning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat hayotidagi tarixiy, siyosiy hamda madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Ingliz tili bu jarayonlarning eng yorqin namunalaridan biridir. U o'zining ming yillik tarixida bir necha bor bosqichlardan o'tgan: Qadimgi ingliz tili, O'rta ingliz tili, Dastlabki zamonaviy ingliz tili va Zamonaviy ingliz tili davrlari. Har bir bosqichda tilning fonetikasi, grammatikasi va leksikasi sezilarli darajada o'zgarib kelgan. Ayniqsa, ingliz tili tarixida lotin, skandinav va fransuz tillari bilan bo'lgan aloqalar uning so'z boyligi va grammatik tuzilishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi ingliz tili davrida (taxminan milodiy 500–1100-yillar) til juda murakkab morfologik tizimga ega bo'lgan. So'zlar o'zaro grammatik shakllar (infleksiyalar) orqali bog'langan va so'z tartibi unchalik muhim bo'lmagan. Masalan, so'z oxiridagi o'zgarishlar orqali subyekt va obyektни farqlash mumkin bo'lgan. Biroq vaqt o'tishi bilan bu murakkab tuzilma soddalashib, zamonaviy ingliz tili analitik tuzilishga ega bo'ldi. Endilikda grammatik ma'no ko'proq so'z tartibi, yordamchi so'zlar va qo'shimcha vositalar yordamida ifodalanib kelmoqda.

Tilning bunday o'zgarishiga ko'plab tarixiy va ijtimoiy omillar sabab bo'lgan. Xususan, 1066-yilgi Norman bosqini natijasida ingliz tili fransuz tili bilan yaqin aloqada bo'lib, yangi so'zlar, iboralar va grammatik qurilmalar paydo bo'ldi. Bu davr mobaynida xalq tili soddalashib, keng ommaga yanada tushunarliroq bo'lib bordi. Shu bilan birga, Great Vowel Shift (buyuk unli tovushlar siljishi) jarayoni ingliz tili talaffuz tizimini tubdan o'zgartirgan.

Zamonaviy ingliz tili bugungi kunda dunyodagi eng keng tarqalgan va global ahamiyatga ega bo'lgan tillardan biridir. Uning grammatik soddaligi, sintaktik moslashuvchanligi va fonetik qulayligi uni xalqaro aloqa va ta'lim tili sifatida mustahkamlab qo'ydi.

Ushbu maqolaning maqsadi — qadimgi va zamonaviy ingliz tili grammatik tizimlarini tarixiy-lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish, ular o'rtasidagi asosiy farqlarni aniqlash va tilning soddalashuvi qanday omillar ta'sirida yuz berganini yoritishdir. Shu orqali ingliz tilining grammatik rivojlanish bosqichlari hamda uning bugungi global mavqega erishish sabablari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. (Hogg & Denison, 2006).

Qadimgi ingliz tili grammatikasi

Qadimgi ingliz tili german tillar oilasiga mansub bo'lgan va o'z davrida juda murakkab grammatik holatga ega bo'lgan. Undagi to'rt grammatik holatlar: nominativ, akkusativ, genitiv va dativ. Bu holatlar so'zning gapdagi vazifasini belgilab

bergan. Masalan, kim subyekt, kim obyekt ekanini aynan shu hol shakllari orqali aniqlash mumkin bo'lgan.

Otlar uchta grammatik jinsga ega edi: erkak, ayol va o'rta jins. Qiziqarli tarafi shundaki, bu jinslar har doim tabiiy jinsni ifodalamagan. Masalan:

- stan (tosh) — erkak jinsda,
- sunne (quyosh) — ayol jinsda,
- wīf (xotin/ayol) — o'rta jinsda ishlatilgan (Mitchell & Robinson, 2012).

Bu yerdagi "ayol" so'zi biologik jinsga umuman taaluqli emas ekanligini ko'rsatib o'tdi va bu yerdagi ya'ni grammatikadagi jinslar biologik jins emasligini shu yerdan tushunib olsak bo'ladi.

Qadimgi ingliz tilida fe'llar ham ikki turga bo'lingan: kuchli va kuchsiz fe'llar. Kuchli fe'llar ildizdagi unli tovushni o'zgartirish orqali zamonni bildirgan (sing – sang – sung), kuchsiz fe'llar esa -ed kabi qo'shimchalar yordamida o'tgan zamonni hosil qilgan (love – loved). Ya'niki biz hammamiz biladigan to'g'ri va noto'g'ri fe'lga o'xshash deganidek.

Shu sababli, qadimgi ingliz tili morfologik jihatdan lotin va nemis tillariga juda o'xshash bo'lgan — ya'ni tilda ko'plab so'z o'zgarishlari mavjud bo'lgan.

Zamonaviy ingliz tili grammatikasi

1500-yillardan boshlab ingliz tili bosqichma-bosqich soddalasha boshladi. Bu jarayonda ba'zi bir qoidalar umuamn o'zgardi, deyarli butunlay yo'qoldi. Hozirgi ingliz tilida faqat egalik shakli (-'s) saqlanib qolgan.

Grammatik jins tizimi ham soddalashdi — endi faqat tabiiy jinslarga asoslanadi: he, she, it.

Ko'plik esa odatda -s qo'shimchasi orqali hosil qilinadi: stone – stones.

Fe'llarda o'tgan zamon -ed yordamida ifodalanadi (walk – walked), uchinchi shaxs birlikda esa -s qo'shimchasi qo'shiladi (he sings). Bu oddiy, lekin universal tizim tilni juda qulay va o'rganish uchun oson holga keltirgan (Huddleston & Pullum, 2005).

Shuningdek, qadimgi ingliz tilida so'z tartibi ancha erkin bo'lgan bo'lsa, zamonaviy ingliz tilida SVO (subject–verb–object) tartibi qat'iy o'rnatilgan. Masalan:

- Oldingi shakl: Him saw the man.
- Hozirgi shakl: The man saw him.

Bu esa tilda hamma tushunishi uchun anchagina yaxshilangan va bu hamma uchun qat'iy bir qarorni shakllantirib bergan.

Tarixiy va ijtimoiy omillar

Ingliz tilining rivojlanishiga tarixiy va ijtimoiy voqealar ham alohida katta ta'sir ko'rsatgan.

Eng muhim burilishlaridan biri — 1066-yilgi Norman bosqinidir. Bu voqeadan so'ng fransuz tili saroy, qonun va ta'lim tili sifatida ishlatildi, ingliz tili esa oddiy xalq tili bo'lib qoldi (Baugh & Cable, 2002).

Natijada ingliz tili siyosat, san'at, din va boshqaruv sohalarida minglab fransuzcha so'zlarni o'zlashtirdi. Masalan, government, justice, beauty va language kabi so'zlar fransuz tilidan kirib kelgandir.

O'rta ingliz tili davrida (1100–1500-yillar) ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi tafovut va xalqaro aloqalarning kengayishi tildagi soddalashuv jarayonini tezlashtirgan. Savdo, sayohat va madaniy almashinuv natijasida ingliz grammatikasi soddalashdi, lug'at ham o'z navbatida boyidi.

Shu davrda yuz bergan Buyuk unli tovushlar siljishi (Great Vowel Shift) ingliz tilining talaffuz tizimini butunlay o'zgartirdi (Hogg & Denison, 2006). Shuning uchun ham hozirgi ingliz tili talaffuzi qadimgi ingliz tilidan keskin farq qiladi.

Adabiyotda bu o'zgarishlar ayniqsa Choser va Shekspir asarlarida yaqqol ko'rindi.

Masalan, o'tmishda ishlatilgan he loveth shaklining o'rniga he loves shakli qo'llanila boshlagan.

Bundan ko'rishimiz mumkin ingliz tili soddalashuvining aniq namunasidir (Crystal, 2003).

Umuman olganda, ingliz tili tarixiy va ijtimoiy o'zgarishlar, madaniy ta'sirlar va ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi farqlarning natijasi sifatida rivojlandi. Har bir bosqich tilga moslashuvchanlikni oshirdi va uni bugungi kunda xalqaro aloqa tili darajasiga olib chiqdi.

Qadimgi va zamonaviy ingliz tili taqqoslamasi

Xususiyat	Qadimgi ingliz tili	Zamonaviy ingliz tili
Hol tizimi	Nominativ, Akkusativ, Genitiv, Dativ	Faqat egalik (-'s)
Jins	3 ta: erkak, ayol, o'rta	Faqat tabiiy jins (he/she/it)
Ko'plik	Irregular, ildiz o'zgarishi	-s qo'shimchasi orqali
Fe'l tuslanishi	Kuchli va kuchsiz fe'llar	-ed, -s va yordamchi fe'llar
So'z tartibi	Erkin	Qat'iy SVO tartibi

Bu taqqoslama orqali ingliz tili murakkab infleksion tuzilishdan soddalashgan analitik tizimga o'tganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa

Xulosa qilganda, ingliz tili grammatikasining bugungi kunda soddalashgan va qat'iy tizimga ega bo'lishi uzoq tarixiy jarayonlar natijasida shakllanib kelgan.

Qadimgi ingliz tili infleksion tizim bo'lib, grammatik ma'nolarni turli qo'shimchalar orqali bildirgan bo'lsa, zamonaviy ingliz tili analitik tizim sifatida so'z tartibi va yordamchi so'zlar orqali ma'noni ifodalaydi.

Bu o'zgarishlar natijasida ingliz tili yanada sodda, moslashuvchan va xalqaro muloqot uchun qulay bo'ldi.

Aynan shu soddalashuv uni global aloqa, ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohalarida yetakchi til darajasiga olib chiqdi (Crystal, 2003; Baugh & Cable, 2002).

Tilning rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki, u insoniyat hayoti va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Til faqat grammatik tizim emas — u inson tafakkuri, madaniyati va tarixining jonli ifodasidir. Shu bois, ingliz tili evolyutsiyasi — bu nafaqat lingvistik, balki madaniy merosning ham muhim qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Baugh, A. C., & Cable, T. (2002). A History of the English Language. London: Routledge.
- Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
- Hogg, R., & Denison, D. (2006). A History of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
- Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2005). A Student's Introduction to English Grammar. Cambridge: Cambridge University Press.
- Mitchell, B., & Robinson, F. C. (2012). A Guide to Old English. Oxford: Blackwell Publishers.